

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**MAMAROZIKOV TIMUR UMARJONOVICH**

**SEYSMIK MIKROHUDUDLASHTIRISHDA GRUNT  
QATLAMLARINING SEYSMIK TEBRANISH PARAMETRLARINI  
GEOFIZIK USULLAR BILAN BAHOLASH**

**04.00.06 – Geofizika. Foydali qazilmalarni qidirishning geofizik usullari**

**geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Mamarozikov Timur Umarjonovich**

Seysmik mikrohududlashtirishda grunt qatlamlarining seysmik tebranish parametrlarini geofizik usullar bilan baholash.....3

**Мамарозиков Тимур Умаржонович**

Оценка параметров сейсмических колебаний грунтовых толщ при сейсмическом микрорайонировании геофизическими методами.....21

**Mamarozikov Timur Umarjonovich**

Assessment of parameters of seismic vibrations in soil strata during seismic microzoning by geophysical methods.....39

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**MAMAROZIKOV TIMUR UMARJONOVICH**

**SEYSMIK MIKROHUDUDLASHTIRISHDA GRUNT QATLAMLARINING  
SEYSMIK TEBRANISH PARAMETRLARINI GEOFIZIK USULLAR  
BILAN BAHOLASH**

**04.00.06 – Geofizika. Foydali qazilmalarni qidirishning geofizik usullari**

**geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/GM207 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Seysmologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.seismos.uz](http://www.seismos.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Ismailov Vaxitxan Alixanovich**  
geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Radjabov Shuxrat Sayfullayevich**  
geologiya-mineralogiya fanlari doktori

**Nurtaev Baxtiyor Sayfullayevich**  
fizika-matematika fanlari nomzodi

**Yetakchi tashkilot:** **Gidrogeologiya va injenerlik**  
**geologiyasi instituti**

Dissertatsiya himoyasi Seysmologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 y. «31» iyul soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uy; Tel.: +99871 241-51-70; +99871 241-74-98; E-mail: seismologiya@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Seysmologiya institutining Axborot-resurslar markazida tanishish mumkin (1154-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uy; Tel.: +99871 241-51-70.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «5» iyul kuni tarqatildi.  
(2024 yil «5» iyuldagi 14-raqamli reestr bayonnomasi)



**S.X. Maksudov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
f.-m.f.d., professor

**Z.F. Shukurov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
g.-m.f. bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**A.I. Tuychiev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon amaliyotida, kuchli zilzilalar natijasida yuzaga keladigan seysmik tebranishlarni baholash va undan ko‘riladigan talafotlarni kamaytirish masalalari seysmik xavfsizlikni ta‘minlash sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Seysmik faol hududlarda, shaharsozlikni rejalashtirishda, kuchli zilzilalar ta‘sirini grunt sharoitlarini hisobga olgan holda baholashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Seysmik xavfi yuqori bo‘lgan davlatlarning barqaror rivojlanishida zilzila ta‘sirida gruntlarda seysmik jadallik ortishini baholash va uzoq muddatli prognoz qilish tadqiqotlari zilzila oqibatlarini yumshatish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Hozirda, dunyoning rivojlangan davlatlarida, turli grunt qatlamlari xususiyatlari asosida seysmik jadallikni baholash bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, geofizik usullar, xususan MASW va HVSU usullari yoradamida grunt qatlamlarining elastik xususiyatlarini baholash, ularning tarqalish qonuniyatlarini aniqlash, seysmik ta‘sir ostidagi grunt qatlamlarining tebranishlarini modellashtirish kabi izlanishlar seysmik xavfsizlik sohasini takomillashtirish, seysmik mikrohududlashtirish asosida shaharsozlikni rejalashtirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizni seysmik faol mintaqada joylashganligi va qurilish hajmining jadal o‘shishi munosabati bilan seysmik mikrohududlashtirish ishlari zarur va dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bunday tadqiqotlar, an‘anaviy geofizik usullardan foydalanish qiyin bo‘lgan, asosan urbanlashgan hududlarda, Andijon, Namangan, Farg‘ona va Toshkent kabi shaharlarda olib borilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash...»<sup>1</sup> bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Shu munosabat bilan seysmik mikrohududlashtirishda zamonaviy geofizik usullardan foydalangan holda grunt qatlamlarining seysmik tebranish parametrlarini baholash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 avgustdagi “Seysmologiya, seysmik chidamli qurilish hamda O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3190-sonli Qarori, 2020 yil 30 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4794-sonli Qarori, 2022 yil 30 maydagi “O‘zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-144-sonli Farmonida ko‘zda tutilgan, hamda ushbu faoliyat bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublikaning fan va texnologiyalarni

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni

rivojlantirish – VIII «Yer haqidagi fanlar» (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom ashyoni qayta ishlash) ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Bugungi kunda seysmik mikrohududlashtirish sohasida katta hajmdagi muhandis-geologik, muhandis-seysmologik va geofizik tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Togʻ jinslarining tarkibi, yer osti suvlarining sathi, relyefi, tektonik tuzulmalarning seysmik jadallikka taʼsir oʻtkazishi haqidagi masalalar koʻplab tadqiqot ishlarida koʻrib chiqilgan. Ushbu muammo bilan turli davrlarda S.V. Medvedev, S.V. Puchkov, A.N. Vaxtanova, N.I. Kriger, A.S. Aleshin, V.B. Zaalishvilli, V.V. Sevostyanov, I.G. Mindel, A.D. Kojevnikov, Gʻ.O. Mavlonov, V.M. Mirzaev, S.M. Qosimov, A. Joʻraev, Yu.K. Chernov, T.S. Valiev, S.A. Abdurahmonov, V.A. Ismailov kabi olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. S.V. Medvedevning ilmiy ishida grunt qatlaminin elastik xususiyatlari va ularning seysmik jadallikka taʼsir oʻtkazishi koʻrib chiqilgan. A.N. Vaxtanova oʻz ishida muhandis-geologik shartlarga bogʻliq holda seysmiklikni differensiatsiyalash (farqlash) uchun asoslarni belgilab bergan. N.I. Kriger, Yu.I. Baulin ilmiy ishlarida turli tipdagi gruntlarning xar-xilligi va deformatsion xususiyatlarining seysmik jadallikka taʼsir oʻtkazishi aniqlangan. Shuningdek, A.S. Aleshinning ishlarida gruntlarning seysmik xususiyatlarini baholash metodologiyasi batafsil tavsiflangan va seysmik mikrohududlashtirishda geofizik usullarning afzalliklari va kamchiliklari baholangan.

Oʻzbekistonda seysmik mikrohududlashtirish sohasiga yoʻnaltirilgan instrumental tadqiqotlar muhandis-geologik maʼlumotlardan foydalangan holda 1961 yildan beri, geologik-tektonik maʼlumotlardan foydalanib, seysmik rejimni hisobga olgan holda 1963 yildan beri olib borilmoqda. Gʻ.O. Mavlonov, V.I. Ulomov, S.M. Qosimov, S.A. Abduraxmanov rahbarligida Oʻzbekiston Respublikasining bir qator shaharlarning hududlari boʻyicha seysmik mikrohududlashtirish metodologiyasi ishlab chiqilgan va xaritalari tuzilgan. Natijada, seysmik mikrohududlashtirishda qoʻllaniladigan muhandis-geologik, geofizik va instrumental seysmologik metodlarning usullari aniqlandi.

Grunt qatlami seysmik xususiyatlarini tadqiq qilishda geofizik usullarning qoʻllanilishi K. Aki, P. Richards, Y. Nakamura, Yu.N. Voskresenskiy, V.K. Xmelevskoy, K. Hayashi, O. Yilmaz va boshqalarning ilmiy ishlarida koʻrib chiqilgan. Shuningdek, tadqiqot doirasida har xil turdagi seysmik toʻlqinlarni qoʻllash va grunt qatlami tuzilishini geofizik usullar yordamida metodik jihatdan tadqiq qilish amalga oshirilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Qurilish maydonlarining seysmik darajasini (makroseysmik ballda va muhandis koʻrsatkichlarida) aniqlash uchun grunt sharoitlarining seysmik modellarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish mexanizmini yaratish” (2021-2023 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** grunt qatlamlarining seysmik tebranish parametrlarini baholash uchun geofizik usullarni takomillashtirishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

grunt qatlamlarining tuzilishi va xossalari o'rganishda mavjud geofizik usullarni tahlil qilish;

turli geofizik usullar yordamida grunt qatlamlarining xususiyatlarini aniqlash;

grunt qatlamlari parametrlarining seysmik tebranishlar xususiyatlariga ta'sirini o'rganish;

gruntlarning spektral xususiyatlarini analitik usullar bilan aniqlash va geofizik kuzatuv natijalari bilan solishtirish;

seysmik grunt sharoitlari modellarini ishlab chiqish va geofizik ma'lumotlar asosida seysmik tebranish parametrlarini baholashning analitik usullarini takomillashtirish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Andijon va Toshkent shaharlarining bino va inshootlari uchun asos bo'lgan grunt qatlamlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** geofizik, muhandis-geologik, yer yuzasining seysmik tebranish parametrlarini baholash bilan bog'liq matematik modellashtirish va ma'lumotlarni tahlil qilish tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida geofizik tadqiqot usullari, jumladan yuza to'lqinlarni ko'p kanalli tahlil qilish (MASW), mikrotebranishlar (HVSR) yozuvlari usullarini komplekslashtirish va tadqiqot hududi bo'ylab geologik va geofizik ma'lumotlarni talqin qilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

MASW seysmik qidiruv usuli ma'lumotlari asosida 30 metrli grunt qatlamlarining o'rtacha zichlik qiymatlarini ekspres baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan;

shahar hududlarini seysmik mikrohududlashtirish vazifalarini hal qilishda MASW usuli samaradorligi baholangan;

grunt qatlamlarining impuls ta'sirlarga reaksiyasini raqamli modellashtirish asosida grunt qatlamining seysmik tebranish xususiyatlarini aniqlash uslubiyoti ishlab chiqilgan;

seysmik tebranish parametrlarini aniqlash maqsadida mikrotebranishlarning gorizontal va vertikal komponentlarining spektral nisbati usulini qo'llash samaradorligi baholangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

Andijon shahri hududi uchun grunt qatlamining seysmik tebranish parametrlari ( $V_{s30}$  va  $f_0$ ) xaritalari yaratilgan;

Andijon shahri grunt qatlamlari uchun ko'ndalang to'lqinlar tarqalish tezligining 3D modeli tuzilgan;

grunt qatlamining seysmik tebranishning rezonans chastotalarini raqamli hisoblash usuli takomillashtirilgan;

raqamli modellashtirish natijalari asosida Toshkent shahridagi qurilish ob'ektlari uchun grunt qatlamlari tebranishining rezonans chastotalari hisoblab chiqilgan va yer yuzasiga bo'ladigan seysmik ta'sirlar baholangan.

**Tadqiqot natijalarning ishonchliligi.** Olingan materiallarning ishonchliligi Andijon va Toshkent shaharlarida o'tkazilgan 70 ta mikroseysm (HVSR usuli bo'yicha) o'lchov nuqtalari, 146 seysmik profillar va 14 punktdagi instrumental

seismometrik kuzatuv tadqiqotlari bilan, hamda ushbu shaharlarning geologik, muhandis-geologik va geofizik tadqiqot natijalari bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shahar hududlarini seysmik mikrohududlashtirishda MASW va HVSR usullari orqali grunt qatlamlarining seysmik tebranish parametrlarini aniqlash seysmik xavfni baholash uslubiyotini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Andijon va Toshkent shaharlari uchun tuzilgan Vs30, f0 va ko'ndalang to'liq tarqalish tezligini ifodalovchi 3D model xaritalar shaharsozlikni rejalashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda zilzilalar oqibatlarini yumshatishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Grunt qatlamlarining seysmik tebranishlar parametrlarini geofizik usullar bilan baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

MASW usuli ma'lumotlari asosida 30 metrli grunt qatlamlarining o'rtacha zichlik qiymatlarini ekspress baholash uslubiyoti Ilg'or texnologiyalar markazi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 22 fevraldagi № 04/17-4/2-162-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar hududlarning fizik-mexanik xususiyatlarini baholashga xizmat qilgan;

shahar hududlarini seysmik mikrohududlashtirish masalalarini hal etishda yuzaki to'liqlarni ko'p kanalli tahlil qilish usuli Ilg'or texnologiyalar markazi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 22 fevraldagi № 04/17-4/2-162-sonli ma'lumotnomasi). Natijada MASW usulidan foydalanish natijalari geofizik tadqiqot ishlarini takomillashtirishga imkon bergan;

grunt qatlamlarining impuls ta'sirlarga reaksiyasini raqamli modellashtirish asosida ishlab chiqilgan uslubiyot Ilg'or texnologiyalari markazi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 22 fevraldagi № 04/17-4/2-162-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, seysmik mikrohududlashtirish ishlarida grunt qatlamlarining chastota xususiyatlarini o'rganish imkonini bergan;

seysmik tebranish parametrlarini baholash maqsadida mikrotebranishlarning gorizontal va vertikal komponentlarining spektral nisbati usuli Ilg'or texnologiyalar markazi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 22 fevraldagi № 04/17-4/2-162-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar grunt qatlamlarining seysmik tebranish xususiyatlarini o'rganishda xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta maqola va tezislar chop etilgan. Shulardan 7 tasi ilmiy maqola, 6 ta tezis. Jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shu jumladan, 3 tasi respublikada va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 99 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va talabgirliigi, uning maqsad va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti ta'riflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatib o'tilgan, tadqiqotning ilmiy yangilik ekanligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi yoritib berilgan hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Grunt qatlamlarining seysmik tebranish parametrlarini baholash muammosining hozirgi holati**» deb nomlanadigan birinchi bobida grunt qatlamlarining seysmik tebranishlar parametrlarini aniqlash, ularning tuzilishi va xususiyatlarini o'rganish imkonini beruvchi tadqiqot usullari keltirilgan.

Grunt qatlamlarining seysmik tebranishlar parametrlariga jadallik, amplituda, tebranishlarning davr, chastota, tezlik, tezlashishi va ularning maksimal qiymatlari kiradi. Ular birgalikda muhandis inshootlariga seysmik ta'sirlar intensivligini aniqlaydi.

Zilzilala vaqtida yer silkinishining intensivligi va shu bilan bog'liq inshootlarning shikastlanishiga ma'lum darajada mahalliy geologik va grunt sharoitlari ta'sir ko'rsatadi. Aniqlanishicha, bo'shoq tog' jinslari zilzila vaqtida grunt harakatini kuchaytiradi va shuning uchun qattiq qatlamli gruntlarga qaraganda talafot ko'proq bo'ladi. Dispers gruntlar ustiga qurilgan zamonaviy shaharlar, ayniqsa, grunt harakatining kuchayishi natijasida yuzaga kelgan zararga nisbatan juda zaifdir.

Seysmik intensivlikni oshirishni baholash usullaridan biri – bu muhandis-geologik analogiyalar usuli hisoblanadi. Ushbu usul kuchli zilzilalardan keyingi muhandis-geologik tadqiqotlar natijalariga asoslangan. KMK 2.01.03-19 1.1-jadvalga muvofiq, barcha gruntlar uchta turkumga bo'linadi, ularning har biri o'z ball o'sishiga -1, 0 yoki +1 ballga mos keladi.

Shu bilan birga, seysmik ta'sir ostida bo'lgan grunt harakatlarining xususiyatlarini tahlil qilish uchun o'rganilayotgan maydonning ma'lum bir muhandis-geologik tuzilishini ushbu xususiyatlardan foydalangan holda hisoblash usuli qo'llaniladi. Bunday holda, elastik to'lqin tezligi, singib ketish ko'rsatkichlari, grunt qatlamlarining qalinligi, ularning zichligi kabi parametrlar va boshqalardan foydalanish mumkin. Hisoblash usulida kirish signali sifatida shunga o'xshash tuzilishga ega uchastkalarining haqiqiy zilzila yozuvlari to'plami qo'llaniladi.

Grunt qatlamlarining elastik parametrlarini seysmik intensivlik bilan bog'lovchi usullardan biri seysmik qattqliklar usuli hisoblanadi.

1963-1965 yillarda Toshkent shahrida o'tkazilgan seysmik mikrohududlashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida seysmik ta'sir lyossimon grunt qatlamlari qalinligi bilan bevosita bog'liqlik va zichlashgan

allyuvial choʻkmalarda suvga toʻyinganlikning seysmik taʻsirga taʻsir koʻrsatmasligi aniqlandi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududida oʻtkazilgan S.M.Qosimov, S.A. Abduraxmonov, K.Sh. Nurmuxamedov, T.S. Valiyev va boshqalarning tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, instrumental tadqiqot maʼlumotlariga koʻra, grunt sharoitlari grunt qatlamidagi tebranishlarning spektral xususiyatlariga taʻsir koʻrsatadi, jadallikning oʻsishi qoplovchi lyossimon qatlam qalinligi bilan keskin aloqaga ega va qalinligi oʻsib borishi bilan jadallikning oʻsishi ham nomoyon boʻladi. Allyuvial choʻkmalarning tarqalish zonalarida intensivlikning oʻsishi -1-0 orasida oʻzgarib turadi. Elektr qidiruv va seysmik qidiruv tadqiqotlarning geofizik usullarini qoʻllash qoplab olgan boʻshashgan gruntlarning tuzilishi va elastik xususiyatlarini oʻrganish va seysmik qattqlik usuli yordamida seysmik intensivlikning oʻsish hisobini amalga oshirish imkonini beradi.

ShNK 1.02.09-15 (E ilova) ga muvofiq seysmik mikrohududlashtirishda asosiy geofizik usullarga singan toʻlqinlar usuli, vertikal seysmik profillash, gamma-gamma karotaj, kuchsiz zilzilalar, portlashlarni qayd etish usullari kiradi. Bundan tashqari, ushbu meʼyoriy hujjatda kuchli zilzilalarni roʻyxatga olish, mikroseysmlarni qayd etish, grunt qatlamlardagi seysmik toʻlqinlarning soʻnish va singib ketish xususiyatlarini aniqlash usullari koʻmakchi usullar deb koʻrsatilgan. Shu bilan birga, grunt qatlamlarining tuzilishi va elastik xususiyatlarini oʻrganish uchun turli vazifalar, xususan seysmik mikrohududlashtirish masalalarini hal qilishda yuza toʻlqinlari va passiv seysmik usullardan foydalanish jahon amaliyotida keng tarqalgan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi «**Grunt qatlamlarining tuzilishi va xususiyatlarini oʻrganish uchun yuza toʻlqinlari usullarining qoʻllanilishi**» deb nomlanadi va seysmik mikrohududlashtirish muammolarini hal qilish uchun yuza toʻlqinlari usullari va ularni qoʻllash toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi.


Yuza toʻlqinlarini koʻp kanalli tahlil qilish (MASW) usuli Reley va Lyava toʻlqinlarini qayd etish va tahlil qilishga asoslangan. Reley toʻlqinlari yer-havo chegarasi kabi erkin yuza boʻylab harakatlanadigan yuza toʻlqinlaridir. Uzun toʻlqinli tebranishlar chuqurroq kirib boradi, ular yuqori faza tezligiga ega va chuqur yotgan qatlamlarning elastik xususiyatlariga, qisqa toʻlqinli tebranishlar esa sirtga yaqin qatlamlarga nisbatan sezgirroq boʻladi, bu esa qayd etiladigan seysmik signalning dispersiyasiga olib keladi.

Mikrotebranishlarning vertikal va gorizontal tarkibiy qismlarining spektral nisbati usuli, shuningdek H/V yoki HVSR usuli sifatida ham tanilgan usul, grunt qatlamlarining seysmik xususiyatlarini oʻrganish uchun samarali vosita hisoblanadi. U Yer yuzasida qayd etilgan tebranishlarni oʻlchashga asoslangan va undan seysmik toʻlqinlarni kuchaytirish taʻsirini aniqlash va baholash uchun keng foydalaniladi.

MASW usuli boʻyicha olingan natijalarning ishonchliligini baholash uchun STU usuli modifikatsiyasi seysmotomografiya, VEZ usullari orqali seysmik va elektr qidiruv ishlari olib borildi.


Natijada, MASW va STU maʼlumotlari boʻyicha  $V_s(z)$  profillari oʻxshash xususiyatlarga ega va bir-birini takrorlaydi (1-rasm). Sezilarli farqlar zaif nur

qoplami kuzatiladigan chuqurliklar va MASW ma'lumotlarida namoyon bo'ladigan tezlik inversiyasiga ega kesimlarda yuzaga keladi.



1-rasm. MASW va STU ma'lumotlari bo'yicha  $V_s(z)$  profillar natijalarini taqqoslash; a-h: 196, 221, 219, 214, 212, 210, 194, 192 nuqtalarning ma'lumotlari

Ikki usul ma'lumotlariga ko'ra,  $V_{s30}$  parametrini baholash amalga oshiriladi (2-rasm). Grafik chiziqli xarakterga ega, bunda STU ma'lumotlari bo'yicha  $V_{s30}$  MASW ma'lumotlariga qaraganda kattaroq qiymatga ega bo'lib chiqdi, bu esa inversiya algoritmlarining ishlashi va usulning tabiati bilan bog'liqdir.



2-rasm. MASW va STU bo'yicha Vs30 ni taqqoslash

HVSR va seysmik qidiruv natijalarini MASW usuli yordamida qiyosiy tahlil qilish uchun ko'p qavatli uy qurilishi maydonchasida tadqiqotlar o'tkazildi. Litologik jihatdan qurilish maydonchasi joylashgan maydonni tashkil etuvchi grunt shag'al ustida yotgan supes va suglinok shaklidagi lyoss gruntlar bilan ifodalanadi. 5 m chuqurlikdagi muhandis-geologik burg'ulash ma'lumotlariga ko'ra, asfalt, qirrali shag'al, quyma gruntlar (qalinligi 1,6 m), suglinok grunt ochilgan.

Seysmik qidiruv ishlari olib borilishi natijasida P va S to'lqinlar tezligining profillari olindi. Ma'lumotlarni talqin qilish natijasida tezligi  $V_p$  475 m/s,  $V_s = 226$  m/s bo'lgan quyma gruntlar,  $V_p$  519-924 m/s,  $V_s = 212-554$  m/s suglinok gruntlar va  $V_p$  1611 m/s,  $V_s = 869$  m/s shag'aldan iborat bo'lgan grunt qatlamlari ajratildi. Lyoss gruntlar uchun elastik to'lqinlarning tarqalish tezligidagi o'zgarishlar diapazoni gruntning zichligi bilan bog'liq bo'lib, u elastik to'lqinlar harakat tezligining bir tekisda o'sish tendensiyasi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ma'lumotlarni ekstrapolyatsiya qilish usuli orqali ushbu qurilish maydonchasi uchun  $V_{s30}$  qiymatlari hisoblab chiqilgan va 534 m/s ni tashkil qilgan.

Mikrotremor yozuvlari ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida  $H/V(f)$  funksiyasi olingan.  $H/V=4.5$  ning eng yuqori qiymatiga  $f_0$  6 Gts chastotasi mos keladi, shu vaqtda 30 metrli grunt qalinligi uchun rezonans chastotasi 4.5 Gts ni tashkil qiladi. Ushbu holat elastik xususiyatlarning kuchli kontrasti bilan aks ettiruvchi chegarasi 30 metrdan kam chuqurlikda joylashganligini aniqlashga imkon beradi.

Ushbu chastotaning shag'al qatlam usti chuqurlikka mos kelishini tahlil qilish uchun S to'lqinlar tezligining shag'al qatlam usti chuqurligigacha o'tish tezligining o'rtacha qiymati hisoblab chiqilgan, bu esa 340 m/s ni tashkil qilgan. Natijada rezonans chastotasi 5.7 Gts ni tashkil qiladi, bu esa olingan eng yuqori  $H/V$  qiymati ushbu chegaraga mos keladi deb xulosa chiqarish imkonini beradi.

Buni tasdiqlash uchun seysmik qidiruv tadqiqoti ma'lumotlariga ko'ra olingan model bo'yicha  $H/V$  natijalarni modellashtirish amalga oshirildi. Modellashtirish natijasida  $H/V(f)$  model funksiyasi olindi, uning eng yuqori qiymati  $f_0$  7 Gts chastotada 6.5 ga teng bo'ladi.

Seysmik to‘lqin qattiqligi ko‘rinishidagi chegara chuqurligi va elastik xususiyatlarining ta‘sirini baholash maqsadida muhitning ikki va uch qatlamli modellari uchun H/V funksiyalarini modellashtirish amalga oshirildi. Modellashtirish HV-Inv ilovasi orqali bajarildi.

H/V(*f*) funksiyalarning olingan tahlili, qoplama qatlami ko‘ndalang to‘lqinlarining tarqalish kuchi va o‘rtacha tezligi H/V amplitudasiga ta‘sir qilmasdan rezonans chastotasiga ta‘sir qiladi, degan xulosaga kelish imkonini beradi. H/V ning seysmik qattiqliklar kontrastiga bog‘liqligining analitik ifodasini olish uchun  $Ai_1/Ai_0$  seysmik qattiqlik nisbatidan H/V(*f*<sub>0</sub>) ning eng yuqori qiymatlari bo‘yicha korrelyatsion- regressiya tahlili o‘tkazildi. Korrelyatsion-regressiya tahlili natijasida quyidagi ifoda olindi (1):

$$\frac{Ai_1}{Ai_0} = 0.1534[\lg(H/V(f_0))]^{-1.507}; R^2 = 0.772 \quad (1)$$

bu yerda,  $Ai_1$  va  $Ai_0$  – mos ravishda ustki qatlam va tub tog‘ jins qatlamlarining seysmik qattiqligi, H/V(*f*<sub>0</sub>) – rezonans chastotasidagi H/V amplitudasi.

Olingan ifoda mikrotremor yozuvlarini tahlil qilish ma‘lumotlari bo‘yicha qoplama - ustki va pastki qatlamlarning seysmik qattiqligi nisbatini baholash va o‘rganilayotgan hududning tog‘ jinslariga nisbatan ballar bilan baholanadigan o‘shishini baholashga imkon beradi.

Olingan ifodani o‘rganilayotgan qurilish maydoni bo‘yicha ma‘lumotlarga qo‘llashda ifoda  $H/V(f_0)=5.6$ ,  $Ai_1/Ai_0=0.238$  bo‘lganda, u holda seysmik qattiqlik usuli boyicha hisoblangan  $\Delta I$  shag‘al gruntning suglinok gruntga nisbatan MSK-64 makroseysmik shkalasi bo‘yicha +0.631 ball qiymatni oladi, seysmik qidiruv ishlari natijasida olingan ma‘lumotlar bo‘yicha suglinok gruntning seysmik qattiqligi

$Ai_1= 549.4 \text{ m}\cdot\text{g/s}\cdot\text{sm}^3$ , shag‘al gruntning seysmik qattiqligi esa  $Ai_0= 1251.34 \text{ m}\cdot\text{g/s}\cdot\text{sm}^3$ , ushbu ma‘lumotlar bilan ballar bilan baholashning o‘shishi  $\Delta I=0.597$  ballni tashkil qiladi.

Ko‘rib chiqilgan usullar Andijon shahrini seysmik mikrohududlashtirishda qo‘llanildi. Andijon shahri hududida olib borilgan geofizik va instrumental tadqiqotlar MASW usulidan foydalangan holda seysmik qidiruv kuzatuvlari, kuchsiz zilzilalar yozuvini qayd etish va H/V usulini o‘z ichiga oladi.

MASW usulidan foydalangan holda olib borilgan geofizik tadqiqotlar profil uzunligi 46 m bo‘lgan 146 kuzatuv nuqtalarida, qabul qilish punktlari orasidagi masofa 2 m bo‘lgan 24 kanalli seysmik qidiruv stansiyasida amalga oshirildi. Qayd qilish uchun 4,5 Gts chastotali vertikal geofonlardan foydalanildi. Qo‘zg‘atish va qabul qilish Z-Z sxemasiga muvofiq, qabul qilish liniyasidan maksimal va minimal masofa 48 va 2 m bo‘lgan yonbosh kuzatuv tizimi bo‘yicha amalga oshirildi.

Olingan chuqurlik-tezlik modellariga ko‘ra, lyoss gruntlar ko‘ndalang to‘lqinlarning 200-300 m/s oralig‘idagi tarqalish tezligiga mos keladi, degan xulosaga kelish mumkin, shag‘al qatlam ko‘ndalang to‘lqinlarning tarqalish tezligi 400 m/s dan yuqori bo‘lgan qatlamlarga to‘g‘ri keladi, bu esa o‘rganilayotgan hududning muhandis-geologik tuzilishi haqidagi ma‘lumotlarga to‘g‘ri keladi. Olingan Vs(*z*) profillar asosida 30 metrli grunt qatlamidagi ko‘ndalang to‘lqin

masofasining o‘rtacha tezlik qiymatlari hisoblab chiqildi va Andijon shahri maydoni bo‘yicha Vs30 ning tarqalish xaritasi tuzildi. Chuqurlik o‘lchamlari 30 metrdan oshmagan hollarda, to‘lqin masofasining o‘rtacha tezlik ma’lumotlarini ekstrapolyasiya qilishda quyidagi tenglama qo‘llanilgan.


$$\log(Vs(30)) = \log(Vs(z_2)) + \frac{\log(30) - \log(z_2)}{\log(z_2) - \log(z_1)} (\log(Vs(z_2)) - \log(Vs(z_1))) \quad (2)$$

bu yerda Vs(30) 30 metrlik grunt qatlamidagi ko‘ndalang to‘lqin o‘rtacha tezligi; z1 va z2 - z1 < z2 < 30 nisbatda bo‘lgan chuqurlik; Vs(z1) va Vs(z2) - z1 va z2 chuqurlikka mos keladigan ko‘ndalang to‘lqin o‘rtacha tezligi.

Olingan Vs30 tarqalish, muhandis-geologik hududlashtirish xaritalarini birgalikda tahlil qilish (3-rasm) Vs30 qiymatining o‘sishi qoplovchi qatlam qalinligi va shag‘al qatlam usti chuqurligi bilan bog‘liqlikni ko‘rsatish imkonini berdi.

Shunday qilib, Vs30 ning eng yuqori qiymatlari – 450-500 m/s, shaharning markaziy qismidagi yuqori to‘rtlamchi davrning supes va suglinok, zamonaviy antropogen quyma gruntlar bilan qoplangan, shag‘al qatlam usti 1-10 m da bo‘lgan allyuvial-prolyuvial cho‘kindilarga to‘g‘ri keladi.

Qoplovchi g‘ilof qatlam qalinligi ortishi bilan Vs30 kamayishi sodir bo‘ladi, bu shaharning shimoliy va g‘arbiy qismlarida yaqqol ifodalangan bo‘lib, u yerda lyossimon supes, suglinokli gruntlar, yupqa qalinlikdagi qum va mayda shag‘al qatlamlari bo‘lgan maydonlar joylashgan, qoplama cho‘kindilarining qalinligi 10 m dan ortiq, shag‘al usti yotish chuqurligi esa 10,0 m dan ortiq chuqurlikda qayd etilgan.



3-rasm. Mikroseysmik ro‘yxatga olish usuli bo‘yicha natijalar va Vs30 izochiziqlarini qoplash orqali muhandis-geologik hududlashtirish xaritasi (nuqtalar bilan H/V qiymatga ega qayd qilish punktlari belgilangan)

Seysmik qidiruv tadqiqotlari va burg‘u ishlari natijasida olingan ma‘lumotlarga ko‘ra, turli muhandis-geologik uchastkalar uchun 30 metrli grunt qatlamlarida ko‘ndalang to‘lqin o‘rtacha zichligi va tezligining kross-plotlari qurilgan. Diagrammalar tahlili ko‘ndalang to‘lqinlar zichligi va tezligining uchastkalarining muhandis-geologik sharoitlariga bog‘liqligini aniqlash imkonini berdi, elastik xususiyatlarga ta‘sir qiluvchi omillar orasida shag‘al usti yotish chuqurligi va yer osti suvlari sathining holatini ajratish mumkin. Birinchi omil ikkala tahlil qilinayotgan elastik parametrlarda namoyon bo‘ladi, ikkinchisi esa ko‘ndalang to‘lqinlarning tarqalish tezligiga qaraganda zichlikka ko‘proq ta‘sir qiladi. Regressiya tahlili natijasida  $\rho_{30}$  ning  $Vs_{30}$  ga korrelyatsiya koeffitsienti 0,67 ga bog‘liqligi olindi (3).

$$\rho_{30} = 0.5296Vs_{30}^{0.1995} \quad (3)$$


bu yerda,  $\rho_{30}$  – 30 metrli grunt qatlamining o‘rtacha zichligi.

Kuchsiz zilzilalar usuli yordamida geofizik tadqiqotlar va instrumental kuzatuvlar natijalarini taqqoslash shuni ko‘rsatadiki,  $Vs_{30}$  tezligining oshishi bilan ball o‘sib borishining kamayishi sodir bo‘ladi. Xaritadan ko‘rinib turibdiki, 400 m/s izochiziq ichida joylashgan stansiyalar uchun ballning o‘shishi nolga teng yoki kichik qiymatga ega. Yuqorida aytib o‘tilgan izochiziqdan tashqarida, qalin lyossimon gruntlarning past tezlikdagi qatlamlari mavjudligi sababli jadallikning ortirmasi ijobiy qiymatlarga ega.

Mikroseysmik qayd etish usuli yordamida olingan natijalar grunt qatlamining rezonans chastotasini aniqlash va yozuvning vertikal va gorizontal qismlarining spektral nisbatini baholashga imkon beradi (H/V). Nisbatning qiymati muhitning elastik xususiyatlaridagi kontrast darajasi bilan bog‘liq, ushbu kontrastning namoyon bo‘lish chastotasi ko‘ndalang to‘lqinlarning kuchi va o‘rtacha tezligi bilan belgilanadi.

4-rasmda 30 metrli grunt qatlamlarining rezonans chastotali izoliniyalari qoplamasi bilan muhandis-geologik hududlashtirish xaritasi va mikroseysmik qayd qilish usuli natijalari taqdim etilgan; H/V qiymatlari bilan ro‘yxatga olish punktlari nuqtalar bilan belgilangan. Ushbu xaritada H/V va  $Vs_{30}$  natijalari o‘rtasidagi ba‘zi nomuvofiqlikni qayd etish mumkin.

Ushbu nomuvofiqlikning sababini anglab etish uchun 30 metrli grunt qatlamining rezonans chastotalari xaritasi hisoblab chiqilgan. Hisob-kitoblar natijasida Andijon shahri uchun 30 metr qalinlikdagi rezonans chastotalar 2-5 Gts chastota diapazonida joylashganligi aniqlandi, demak mikrotebranishlarni qayd qilish ma‘lumotlaridan olingan chastota diapazonidan sezilarli darajada torroq. Pastki chastotalar mavjudligi 30 m dan katta chuqurlikda kontrastli grunt-tog‘ jinsi chegarasi mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu vaziyatning echimi kesim tuzilishi va uning elastik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish usullarini birlashtirishda ko‘rinadi.



4-rasm. 30 metrli grunt qatlamining rezonans chastota izochiziqlari va mikroseysmik qayd qilish usuli natijalari bilan muhandis-geologik hududlashtirish xaritasi (ro'yxatga olish punktlari  $f_0$  belgili nuqtalar bilan belgilangan)

Dissertatsiyaning «**Geofizik tadqiqot ma'lumotlari bo'yicha grunt qatlamlarining rezonans xususiyatlarini o'rganish**» deb nomlanuvchi uchinchi bo'limida grunt qatlamining rezonans xususiyatlarini o'rganish natijalari keltirilgan.

Grunt qatlamining rezonans xususiyatlari – bu grunt qatlamining ma'lum bir chastotali tebranishlarini kuchaytirish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat grunt qatlamlarida elastik to'lqinlar tarqalishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq.

Grunt qatlamining rezonans xususiyatlarini o'rganish usullari H/V egri chiziqlarini tahlil qilish yoki grunt qatlamining elastik xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisoblash usullaridan foydalanish hisoblanadi.

Grunt qatlamining uzatish funksiyasini o'rganishni hisoblash usuli grunt qatlamining seysmik ta'sirga reaksiyasini modellashtirishga asoslangan. Kirish ma'lumotlari o'rganilayotgan hududning chuqurlik, tezlik, zichlik modellari, shuningdek seysmik ta'sirning to'lqin shakli hisoblanadi. Seysmik ta'sir sodir bo'lgan zilzila yozuvi yoki belgilangan chastota xususiyatlariga ega model impulsi sifatida ifodalanishi mumkin. Ikkinchi yondashuvni qo'llash yanada mantiqliroq ko'rinadi, chunki zilzila yozuvlari o'lchovlar amalga oshirilgan grunt qatlamining chastota xususiyatlarini o'z ichiga oladi.


Tadqiqot doirasida 0,1-100 Gts chastotali diapazondagi modeli impulsdan foydalanilgan.

Modellashtirish natijasida erkin yuzadagi tebranishlar yozuvini olish mumkin, ular spektrining boshlang'ich spektrga nisbati grunt qatlami xususiyatlari hisobiga

tebranishlarni kuchaytirish grafigini olish imkonini beradi, grafikda kuzatilgan yuqori nuqtalar muhitning berilgan modelning rezonans chastotalarini aniqlash imkonini beradi. Chastota diapazonidagi yuqori nuqta ma'lumotlari quyidagi nisbatga mos keladi  $f_0 = \frac{4H}{V_s}$ , va dinamiklik koeffitsienti deb ataladigan ushbu yuqori nuqta amplitudasi esa ma'lum bir chastotada olingan va kirish signali spektrlarining nisbati hisoblanadi. Berilgan nuqta uchun olingan natijalarni H/V kuzatuv ma'lumotlari bilan taqqoslab, egri chiziqlar shakllarining bir xilligini kuzatish mumkin. Chastota 6.5 Gts bo'lganda bir-biriga aynan o'xshash yuqori nuqtalar kuzatiladi, bunda H/V ma'lumotlarida model ma'lumotlarida mavjud bo'lmagan 2-3 Gts li chastota diapazonidagi maksimumlar ishtirok etadi. Ushbu jihatni modelning cheklovlari va grunt qatlamining to'liq tuzilishi haqida ma'lumot yo'qligi bilan izohlash mumkin, shuningdek, H/V ma'lumotlari 1 Gts dan past chastotalarda funksiyaning oshishini kuzatilgan, bu esa tekshirilganidan kattaroq chuqurlikda kontrastli chegara mavjudligidan dalolat beradi.

Geofizik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kirish effekti sifatida qisqa impulsdan foydalanib, Strata dasturiy paketida Toshkent shahar qurilish maydonchalari grunt qatlamining seysmik ta'sirga reaksiyasi raqamli modellashtirish orqali amalga oshirildi. Modellashtirish natijasida grunt qatlamining dinamiklik koeffitsientidagi o'zgarishlarning egri chiziqlari olindi.

Olingan natijalar (5-rasm) seysmik ta'sir ostida rezonans ta'sirini baholashga imkon beradi, bu asosan ko'p jihatdan grunt massivining qalinligi, shuningdek uning elastik xususiyatlari kabi parametrlarga bog'liq. O'zgarmas qalinlikdagi grunt massivi elastik xususiyatlarining yomonlashuvi rezonans chastotasining pasayishi va dinamiklik koeffitsientining oshishiga olib keladi, bu esa seysmik ta'sir intensivligining oshishiga olib keladi.



5-rasm. O'rganilayotgan nuqtalarda amplitudalar va ularga mos chastotalarning eng yuqori qiymatlari

Dissertatsiyaning «**Andijon shahrining erkin yuzasidagi seysmik ta'sirlarni baholash**» deb nomlanuvchi to'rtinchi bobida erkin yuzadagi seysmik ta'sirlarni hisoblash usuli orqali baholash taqdim etilgan.

Seysmik mikrohududlashtirishning yakuniy bosqichlaridan biri erkin yuzadagi seysmik ta'sirlarni baholash hisoblanadi.

Seysmik ta'sirlarni hisob-kitob qilishni amalga oshirish uchun dastlabki ma'lumotlar seysmik grunt sharoitlari modeli va ushbu model orqali o'tgan dastlabki tebranishlar hisoblanadi.

Muhandis-geologik va seysmik qidiruv ma'lumotlariga (MASW profillari) asoslangan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun umumlashtirilgan seysmogeologik model, grunt qatlamining 70 modeli qurildi.

Hisoblash usullari grunt qatlamining amplituda-chastota xususiyatlari va shunga mos ravishda maydonning erkin yuzasi yoki muhitning ichki nuqtalarida qatlamli muhit tomonidan o'zgartirilgan tebranishlarning xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Ushbu usul yordamida hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun akselerogramma, reaksiya spektri tomonidan berilgan dastlabki seysmik ta'sirni aniqlash va grunt qatlamining seysmogeologik modellarini yaratish kerak. Buning uchun zilzilalarning akselerogrammalari tanlab olindi, ular o'z mexanizmi (tashlama uzilma va ko'tarilma uzilma) va seysmik to'lqinlarning tarqalish tabiati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududining seysmologik sharoitlariga mos keladi.

Dastlabki seysmik ta'sir sifatida normallashtirilgan akselerogrammadan 2020/11/06 07:38:57.000 foydalanilgan. PGA – 0,38g. M=5.0. N=5 km. Kengligi 40.16, Uzunligi 71.72, SKHM seysmik stansiyasi.

Akselerogrammalar normallashtirilgan va Andijon shahri hududida 300 m chuqurlikda keng tarqalgan birinchi toifadagi gruntlarning tezlashishiga mos keladigan tezlashuv qiymatiga keltirilgan, ular konglomerat gil – loy grunt bilan ifodalanadi.

Grunt qatlamlarining geologik tuzilishi va fizik xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar grunt qatlamlarining seysmik ta'sirga reaksiyasini modellashtirish uchun dastlabki ma'lumotlar hisoblanadi. Bunday modellashtirish asosida yuqqa qatlam usuli, shuningdek cheklangan elementlar usuli yotadi. Ushbu modellashtirish grunt qatlamining rezonans xususiyatlarini hisobga olish va grunt sharoitlarining amplituda, chastota spektri va tebranishlar davomiyligiga ta'sirini baholash imkonini beradi. Shunga o'xshash yondashuv asosida 70 ta seysmogeologik modellar ishlab chiqilgan, ularning rejadagi joylashuvi seysmogeologik modellarining joylashish nuqtalari xaritasida ko'rsatilgan. Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, seysmogeologik modellarni ishlab chiqishda seysmik qidiruv natijalari, ya'ni bo'shliqdagi Vs30 o'zgarishlardan foydalanilgan.

Grunt qatlami reaksiyasining spektrlari grunt turli spektral diapazonlariga ta'sir qilish reaksiyasining o'zgarishini tahlil qilishga imkon beradi, eng kichik o'zgarish 10-nuqta uchun kuzatiladi. Grunt qatlami reaksiyasining eng katta o'sishi 0,11 – 0,5 s davrlar oralig'ida kuzatiladi, bu 1-2 Gts ga to'g'ri keladi. Modellashtirish natijasida eng yuqori tezlanishning o'zgarish grafiklari va chuqurlik bilan grunt reaksiyasi spektri hisoblab chiqilgan. Shunday qilib, kunduzgi yuzada tezlashishning eng

yuqori qiymati taqdim etilgan nuqtalar uchun mos ravishda 0,55g va 0,28g ni tashkil qiladi. Barcha profillarda tog' jinslari darajasining 0,28 g gacha cho'qqi tezlanishining pasayish tendensiyasi kuzatiladi.

Interpolyasiya natijasida barcha 70 ta nuqta uchun zilzilani modellashtirgan holda, Andijon shahri hududini cho'qqi tezlanish ko'rsatkichlarida seysmik mikrohududlashtirish xaritasi, boshlang'ich seysmik cho'qqi tezlanish qiymati 0,301g bo'lgan asosida hisob usul yordamida tuzildi (6-rasm).



6-rasm. Andijon shahri hududini cho'qqi tezlanish (PGA) qiymatlari bo'yicha seysmik mikrohududlashtirish xaritasi

## XULOSA

Ushbu dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Vs30 parametrni baholashda MASW va STU usullar bir xil natijalarni ko'rsatdi, biroq Vs(z) profillar taqqoslanganda, kesimda tezlik inversiyasi yuzaga kelganda, STU bo'yicha chuqurlikni aniqlashtirish o'lchami sezilarli darajada pasayishi aniqlandi.

2. Beshta o'zgarmas grunt qatlam modellari H/V(f) fuksiyasi tahlili asosida seysmik qattqlik nisbatining H/V(f0) qiymatiga to'g'ri proposionaligi aniqlanadi. H/V(f0) seysmik qattqlik nisbatining orasidagi bog'liqlik ifodasi asosida seysmik jadallik ortirmasini baholashga imkon berdi.

3. MASW usuli asosida Andijon shahri hududida tarqalgan gurunt qatlamlarining Vs30 qiymatlari 300 dan 550 m/s gacha o'zgarishi, Vs30 qiymati shag'al yotqiziqlarni qoplagan lyossimon gruntlarning qalinligi bilan chambarchas bog'liqligi aniqlandi. Natijalar shahar hududining Vs30 xaritasini ishlab chiqishga imkon berdi.

4. Instrumental tadqiqot natijalarida olingan seysmik jadallik ortirma qiymatlari Vs30 qiymatlari bilan teskari proporsionalligi aniqlandi. Ushbu

bog'liqlik grunt qatlamlari xususiyatlarining seysmik jadallikka ta'siri bilan izohlanadi.

5. Grunt qatlamlari modelining seysmik ta'sirga reaksiyasini baholash natijasida Toshkent shahri qurilish maydonlari grunt qatlamining chastotali ta'siri aniqlandi. Olingan natijalar H/V ma'lumotlari bilan tasdiqlandi.

6. Seysmik mikrohududlashtirishda grunt modellarini qo'llanilishi seysmik ta'sirning sintetik akselerogrammalaridan foydalangan holda yer yuzasida vujudga keladigan seysmik ta'sirni baholash imkonini berdi. Bunday yondashuv grunt qatlamlarining seysmik ta'sirga ko'rsatadigan effektini barcha jihatlarini hisobga olish imkonini berdi.

7. Andijon shahrining Vs30 va cho'qqi tezlanishlarning ko'rsatkichlari taqqoslanganda ularning qiymatlari teskari proporsionalligi aniqlandi. Shaharning markaziy va sharqiy qismlarida Vs30 yuqori bo'lganda cho'qqi tezlanishlarning minimal qiymatlariga to'g'ri kelishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ ИНСТИТУТЕ СЕЙСМОЛОГИИ**

---

**ИНСТИТУТ СЕЙСМОЛОГИИ**

**МАМАРОЗИКОВ ТИМУР УМАРЖОНОВИЧ**

**ОЦЕНКА ПАРАМЕТРОВ СЕЙСМИЧЕСКИХ КОЛЕБАНИЙ  
ГРУНТОВЫХ ТОЛЩ ПРИ СЕЙСМИЧЕСКОМ  
МИКРОРАЙОНИРОВАНИИ ГЕОФИЗИЧЕСКИМИ МЕТОДАМИ**

**04.00.06 – Геофизика. Геофизические методы поисков полезных ископаемых**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора философии (PhD) по геолого-минералогическим наукам**

**Ташкент-2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.4.PhD/GM207.

Диссертационная работа выполнена в Институте сейсмологии.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.seismos.uz](http://www.seismos.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** **Исмаилов Вахитхан Алиханович**  
доктор геолого-минералогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Раджабов Шухрат Сайфуллаевич**  
доктор геолого-минералогических наук

**Нуртаев Бахтиер Сайфуллаевич**  
кандидат физико-математических наук

**Ведущая организация:** **Институт гидрогеологии и инженерной геологии**

Защита диссертации состоится «31» июля 2024 года в «10:00» часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 при Институте сейсмологии (Адрес: 100128, г. Ташкент, ул. Зулфияхоним, 3. Тел.: +99871 241-51-70; +99871 241-74-98; E-mail: [seismologiya@mail.ru](mailto:seismologiya@mail.ru)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института сейсмологии (регистрационный номер №1154) (100128, г. Ташкент, ул. Зулфияхоним, 3. Тел.: +99871 241-51-70)

Автореферат диссертации разослан «5» июля 2024 года.  
(реестр протокола рассылки №14 от «5» июля 2024 года).



**С.Х. Максудов**  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.ф.-м.н., профессор

**З.Ф. Шукуров**  
Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор философии (PhD) по г.-м.н.

**А.И. Туйчиев**  
Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученых степеней,  
д.ф.-м.н.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой практике большое значение в области сейсмической безопасности имеют вопросы оценки сейсмических колебаний, вызванных сильными землетрясениями, и снижения их ущерба. В сейсмически активных районах при градостроительном планировании особое внимание уделяется оценке воздействия сильных землетрясений с учетом грунтовых условий. В условиях устойчивого развития стран с высоким сейсмическим риском оценка приращения сейсмической интенсивности землетрясения за счет грунтовых условий и исследования, направленные на долгосрочный прогноз, позволяют реализовать меры по смягчению последствий землетрясения.

В настоящее время в развитых странах мира проводится ряд научных исследований по оценке сейсмических воздействий на основе свойств различных грунтовых толщ. В этом контексте геофизические методы, в частности методы MASW и HVSR, применяются для оценки упругих свойств слоев грунта, определения закономерностей их распространения и моделирования колебаний грунтовых толщ под сейсмическим воздействием, при этом особое внимание уделяется совершенствованию области сейсмической безопасности и градостроительного планирования на основе сейсмического микрорайонирования.

В связи с тем, что наша Республика находится в сейсмически активном регионе и бурным ростом объёмов строительства работы по сейсмическому районированию становятся необходимым и востребованными. Такие исследования выполняются преимущественно на урбанизированных территориях, в частности в городах Андижан, Наманган, Фергана и Ташкент, где затруднено применение стандартных геофизических методов. В стратегии развития нового Узбекистана определены важные задачи по «...экологии и охране окружающей среды, улучшению экологической ситуации в городах и районах...»<sup>1</sup>. В связи с этим актуальным является проведение научных исследований по оценке параметров сейсмических колебаний грунтовых слоев с использованием современных геофизических методов при сейсмическом микрорайонировании.

Исследования, проводимые в рамках данной диссертационной работы, в определенной степени служат выполнению задач, предусмотренных в постановлениях Президента Республики Узбекистан от 9 августа 2017 года №ПП-3190 «О мерах по совершенствованию проведения научных исследований в области сейсмологии, сейсмостойкого строительства и сейсмической безопасности населения и территории Республики Узбекистан», от 30 мая 2020 года №ПП-4794 «О мерах по коренному совершенствованию системы обеспечения сейсмической безопасности населения и территории Республики Узбекистан», Указе Президента Республики Узбекистан от 30 мая 2022 года №144 УП «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы

---

